

O'ZBEKISTONNING ISSIQ IQLIM SHAROITIDA ANGOR ZOTLI ULOQLARNING 3 VA 6 OYLIK YOSHIDAGI GEMATOLOGIK KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHI VA FIZIOLOGIK MOSLASHUVI

Aqnazarov Doniyor Karribayevich
q.x.f.f.d., (PhD) ChPITI

Anotatsiya: *Maqolada O'zbekistonning quruq va issiq iqlim sharoitida yetishtirilayotgan angor zotli uloqlarning 3 va 6 oylik yoshidagi gematologik ko'rsatkichlari (gemoglobin, eritrotsit va leykotsitlar) o'rganildi. Tadqiqot natijalari gematologik ko'rsatkichlarning fiziologik me'yor doirasida barqaror saqlanganini va bu holat yosh hayvonlarning issiqlikka moslashuvchanligini ilmiy asosda tasdiqlashini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *angor echkisi, uloq, gematologiya, moslashuv, issiq iqlim.*

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Echkichilikda sof angor zotli urchitish, ular bosh sonini ko'paytirish, tarmoqlarda seleksiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tanlash va saralash usullarini qo'llash, yangi zotlarini yaratish, shuningdek nasldor takalar bilan naslli ona echkilarni urchitish ishlarida saralash rejasiga muvofiq amalga oshirishni ilmiy asosda tashkil etish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Tivit beruvchi echkichilik seleksiyasida echkilarning jun mahsuldor-ligini ko'paytirishda urchitishdan olingan avlodlarni nasl sifatini takomillashtirish, ularning tivit beruvchi seleksiya guruhlarini shakllantirish, mahalliy echkilarning tivit mahsuldorligi yuqori guruhlarini yaratishga asos solish tarmog'ida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga kasb etadi.

Qolaversa chetdan olib kelingn jun yo'nalishidagi echkilarni O'zbekistonga qay darajada moslashayotgannini o'rganish muhimdir, qon – organizmning eng muhim suyuq to'qimasi bo'lib, u nafaqat kislorod, oziq moddalar va metabolitlarni tashish, balki termoregulyatsiya, immun himoya hamda homeostazni saqlashda ham asosiy rol o'ynaydi. Qon tarkibidagi gematologik ko'rsatkichlar (gemoglobin, eritrotsit va leykotsitlar miqdori) hayvon organizmining umumiy fiziologik holatini, o'sish va rivojlanish darajasini hamda tashqi muhit omillariga moslashuvini baholash imkonini beradi. Echkilar, xususan, angor zotli echkilar yuqori sifatli mayin tolali jun berishi bilan birga, tashqi muhit sharoitlariga nisbatan sezgir zotlardan hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekistonning quruq va issiq iqlim sharoitida ularning qon tarkibi o'zgarishlarini kuzatish amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotni o'tkazish joyi va uslublari. Ilmiy tadqiqotlar 2024-2026 yillarda Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot institutining Ohangaron bo'limining o'quv-tajriba xo'jaligida olib borildi.

Loyihani bajarish uchun ish uslubi va ish dasturi ishlab chiqildi hamda bajaruvchilar ro'yxati aniqlanib, ularning vazifalari belgilab olindi. Chorvachilik va parrandachilik ilmiy

tadqiqot institutining Ohangaron bo'limining o'quv-tajriba xo'jaligi va ularda tajriba echkilari tanlandi.

Tadqiqotlarda qo'zilar qonining gemotologik ko'rsatkichlari G.YE.Sulimova (1993) usulida, statistik: o'rtacha arifmetik va uning xatosi, guruhlararo farqning ishonchlilik darajasi YE.K.Merkuryeva (1970) usulida aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Qon organizmda juda muhim ko'plab murakkab funksiyalarni bajaradi, moddalar almashinuvi jarayonida qatnashib organlar va to'qimalarni to'yimli moddalar bilan ta'minlaydi. Organizmda suv meyorini ushlab turadi va hujayralarda kechayotgan jarayonlarga oziq moddalar va suv ta'minotini, shu bilan birga moddalar termoregulyatsiyasini hamda transportirovkasini amalga oshiradi. Shu bois tadqiqotlarda tajribadagi ahgor zotli uloqlarning qon tarkibini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Echkilar ham boshqa qishloq xo'jalik hayvonlari kabi o'zining foydali xo'jalik belgilarini tabiiy iqlim sharoitida joylashgan hududlarda joriy etilayotgan texnologik omillarga moslashuvi va asrash va oziqlantirish sharoitiga nisbatan chidamliligi, o'sish va rivojlanishida qon tarkibidagi elementlarning nisbatini o'rganib borish muhim ahamiyatga ega. Echkilar qonining tarkibi yoshi, jinsi, zoti, yil fasllari, asrash, parvarishlash va oziqlantirish texnologiyasi hamda organizmni fiziologik holati bilan uzviy bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Tajribamizdagi uloqlrning qonning morfologik ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Uloqlar qonidagi gemoglobin, eritrotsit va leykotsitlar miqdori

Oylik yoshda	Gemoglobin, g/ %	Yeritrotsit, ml/mm ³	Leykotsit, ming/mm ³
3 oylikda	9,73	8,83	8,70
6 oylikda	9,67	8,20	8,50

1-jadval ma'lumotlarining ko'rinishicha, tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, angor zotli uloqlar 3 oydan 6 oygacha bo'lgan davrda qonning asosiy gematologik ko'rsatkichlari – gemoglobin, eritrotsit va leykotsitlar miqdori bo'yicha barqaror fiziologik o'zgarishlarni namoyon qilmoqda.

Gemoglobin miqdori ikki yoshda ham deyarli o'zgarmagan (9,73 → 9,67 g/%), bu esa kislorod tashuvchi tizimning yetarli faoliyat yuritayotganini bildiradi.

Eritrotsitlar sonining 8,20 mln/mm³ dan 8,83 mln/mm³ gacha ortishi organizmda qon hosil qilish jarayoni faol kechayotganidan, o'sish va modda almashinuvining jadallashganidan dalolat beradi.

Leykotsitlar darajasining 8,70 ming/mm³ dan 8,50 ming/mm³ ga biroz pasayishi esa immun tizimning yoshga qarab muvozanatlanayotganini ko'rsatadi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida angor uloqlarning O'zbekistonning nisbatan quruq va issiq iqlim sharoitlariga moslashuvida fiziologik barqarorlik shakllanayotgani kuzatildi.

Xususan, Yozgi issiqlikka qaramay, organizmda qon ko'rsatkichlari muvozanatda saqlanmoqda, Bu holat harorat stressiga nisbatan chidamlilik shakllanayotganidan dalolat beradi, Eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining optimal darajada saqlanishi to'qimalarni kislorod bilan ta'minlash samaradorligi yuqoriligini ko'rsatadi.

Shuningdek, 6 oylik yoshda kuzatilgan eritrotsitlar sonining ortishi va leykotsitlar miqdorining meyorda saqlanishi O'zbekistonning issiq iqlim sharoitlariga moslashuvning muvaffaqiyatli kechayotganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

XULOSA

Ushbu natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, Turkiyadan import qilingan angor zotli echkilar va ulardan tug'ilgan uloqlar O'zbekistonning issiq va quruq iqlim sharoitlarida o'zini yaxshi his qilib, yaylov o'simliklarini yaxshi darajada o'zlashtirayotganligini, ularning gematologik ko'rsatkichlarining fiziologik meyor darajada bo'lganligi, echkilar organizmda moddalar almashinuvi jarayonlarining barqaror kechayotganini hamda ular sog'lom ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abilov A. va boshq. (2018). Veterinariya gematologiyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2020). Hayvonlar qonini tahlil qilish bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent.
3. Aliev K. (2015). Echkilar qon tarkibining fiziologik xususiyatlari. Veterinariya jurnali, №2, 45–49.
4. Yakovlev N.A. (2012). Qishloq xo'jalik hayvonlari fiziologiyasi. Moskva: Kolos.